ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№1(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 138 sahifa, 20-yanvar, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash ............ 16
Akramova Dildora Ergashboy qizi

Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati ............ 21
Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi

O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari ............ 25
Sobirova Nilufar Azimboy qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish ............ 29
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari ............ 32
Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari ............ 37
Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharafova Shahinabegim Saidabbos qizi

Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari ............ 41
Ibodullayeva Munira Atabek qizi

Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi ............ 44
Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna

Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education ............ 49
Abira Bakhramova

Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar ............ 54
Artikova Gulnoza Xasanovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari ............ 57
Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna

Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari ............ 60
Meyliqulova Manzura Abdullayevna

Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL ............ 63
Noila Mustafoyeva

Tarixiy obidalarning restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi ............ 67
Ochilov Davron Bahodir o'g'li

Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi ............ 72
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi

Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi ............ 76
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li

Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati ............ 80
Rajabova Matluba Toshkentboy qizi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari ............ 83
Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi

Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri ............ 86
Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna

Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi ............ 90
Tashimov Nurlan Erpolatovich

Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida ........ 94
**Uralova Muxabbat Sanjar qizi**

O‘zbek tili darslarida raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish tajribasi ........ 98
**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna**

Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера ........ 101
**Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи**

Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект ........ 107
**Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна**

Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений ........ 111
**Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржонова Мохира Илхомжон кизи**

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari ........ 115
**Artikbayeva Aziza Abror qizi**

Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi ........ 118
**Berdiyeva Lobar Norqobulovna**

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta’lim texnologiyasidan foydalanish ........ 120
**Esanova Maysara Umirovna**

Logopediyada axborot texnologiyalarini qo‘llash metodlari ........ 124
**Feruza Yusupova Akildjanovna**

Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni va rivojlanish bosqichlari ........ 130
**Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li, Allanazarova Anora Muxobir qizi**

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish ........ 134
**Umarov Xusniddin**

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ



# O'ZBEK TILI DARSLARIDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH TAJRIBASI

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
**ORCID: 0000-0002-3898-2113**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy tajribalari yoritilgan. Ta'lim jarayonida elektron darsliklar, multimedia materiallari, onlayn platformalar, interfaol mashqlar va test tizimlaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishi, mustaqil fikrlash hamda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili ta'limi, raqamli ta'lim vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia, interfaol metodlar, onlayn platformalar, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim samaradorligi.

**Abstract:** This article examines the theoretical foundations and practical experience of using digital educational tools in Uzbek language lessons. The study analyzes the role of electronic textbooks, multimedia materials, online platforms, interactive exercises, and testing systems in increasing students' motivation to learn, as well as in developing independent thinking and communicative competencies.

**Key words:** Uzbek language education, digital educational tools, information and communication technologies, multimedia, interactive methods, online platforms, competency-based approach, educational effectiveness.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические основы и практический опыт использования цифровых образовательных средств на уроках узбекского языка. Анализируется значение применения электронных учебников, мультимедийных материалов, онлайн-платформ, интерактивных упражнений и тестовых систем в повышении интереса учащихся к обучению, а также в развитии их самостоятельного мышления и речевых компетенций.

**Ключевые слова:** узбекский язык, цифровые образовательные средства, информационно-коммуникационные технологии, мультимедиа, интерактивные методы, онлайн-платформы, компетентностный подход, эффективность образования.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Xususan, umumta'lim maktablarida o'zbek tili fanini o'qitishda zamonaviy raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbek tili darslarida elektron darsliklar, multimedia materiallari, interfaol taqdimotlar, onlayn platformalar va test tizimlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday vositalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim vositalari orqali dars jarayonini individuallashtirish va differensial yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlari ham kengaymoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogika fanida raqamli ta'lim tushunchasi ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish bilan izohlanadi.

Tadqiqotchi olim A.V. Xutorskoy raqamli ta'limni shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvning muhim omili sifatida baholab, uning asosiy vazifasi ta'lim oluvchining mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirishdan iborat ekanini ta'kidlaydi.

N.F. Talizina fikricha, raqamli ta'lim vositalari bilimlarni faqat yetkazish vositasi bo'lib qolmay, balki ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqaruvchi didaktik mexanizm vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli ta'lim vositalari ta'lim tizimida o'qitishning samarali shakllaridan biri sifatida qaraladi.

Til o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (J. Jalolov, Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev) tilni o'qitishda nutqiy faoliyatga asoslangan yondashuv ustuvor ekanligi ta'kidlanadi.

J. Jalolov o'z ishlarida ona tili va xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyatini asoslab, raqamli texnologiyalar ushbu yondashuvni amalga oshirishda samarali vosita bo'lishini qayd etadi.

Sh. Rahmatullayevning fikricha, til birliklarini kontekstda, real nutqiy vaziyatlar asosida o'rgatish til ta'limining asosiy talabidir. Raqamli ta'lim vositalari esa bunday vaziyatlarni sun'iy tarzda modellashtirish imkonini beradi. Multimedia materiallari, audio va video matnlar o'quvchilarning fonetik, leksik va grammatik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagog-olim E.S. Polat ta'lim platformalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Moodle, Google Classroom kabi platformalar o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish va refleksiya kompetensiyalarini shakllantiradi.

O'zbek metodist olimlari (A. Abdullayev, M. Qodirov) o'zbek tili mashg'ulotlarida elektron darsliklar, raqamli lug'atlar va matn korpuslaridan foydalanish tilni ilmiy hamda amaliy jihatdan o'rganishga xizmat qilishini qayd etadilar. Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida ushbu vositalar talabalarning ilmiy-uslubiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olim I.A. Zimnyaya kompetensiyani bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarning integratsiyasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, raqamli ta'lim vositalari ushbu integratsiyani ta'minlashda samarali mexanizm hisoblanadi.

O'zbek tili ta'limida raqamli texnologiyalar lingvistik, kommunikativ, axborot va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Onlayn munozaralar, forumlar va jamoaviy topshiriqlar o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantiradi, bu esa til ta'limining asosiy maqsadlaridan biridir.

Tadqiqotchi olim V.P. Bespalko raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishda ularning didaktik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bu holat o'zbek tili ta'limi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, ayrim olimlar (G.K. Selevko) raqamli vositalardan haddan tashqari foydalanish jonli muloqotni cheklashi mumkinligini qayd etadilar. Shu bois, raqamli va an'anaviy ta'lim vositalarini uyg'unlashtirish nazariy va amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbek tili darslariga raqamli ta'lim vositalarini joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, texnik ta'minotning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati hamda raqamli resurslardan maqsadli va samarali foydalanish masalalari alohida e'tiborni talab etadi. Mazkur maqolada o'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy tajribalari tahlil qilinib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Raqamli ta'lim vositalari bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. O'zbek tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, dars samaradorligini ta'minlash hamda ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Jumladan, elektron darsliklar, audiovizual materiallar, interfaol taqdimotlar va virtual mashqlar til birliklarini o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli vositalar yordamida o'quvchilar til hodisalarini ko'rish, eshitish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu holat ularning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, raqamli ta'lim vositalari dars jarayonida individuallashtirilgan va differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili darslarida elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalar mavzularni mustaqil o'rganish va takrorlash uchun qulay vosita bo'lib xizmat qiladi, multimedia materiallari (audio, video va animatsiyalar) fonetika, orfoepiya hamda nutq madaniyatini o'rgatishda yuqori samaradorlikka ega, interfaol mashqlar va testlar bilimlarni mustahkamlash hamda nazorat qilish imkonini beradi, onlayn ta'lim platformalari masofaviy ta'limni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi, taqdimot dasturlari esa grammatik qoidalarni tizimli va tushunarli bayon etishga xizmat qiladi. Mazkur vositalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, dars jarayonining faolligini oshiradi.

O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha olib borilgan amaliy tajribalar ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Jumladan, multimedia materiallari asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lishi kuzatiladi. Interfaol testlar va onlayn topshiriqlar orqali o'quv-

chilarning bilim darajasi tez va aniq baholanadi. Shuningdek, raqamli vositalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar internet resurslari orqali qo'shimcha ma'lumotlar izlash, mustaqil topshiriqlar bajarish va o'z bilimlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Raqamli ta'lim vositalarini o'zbek tili darslariga joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim ta'lim muassasalarida texnik jihozlarning yetishmasligi, internet tezligining pastligi hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim muassasalarini zarur texnik vositalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish uchun raqamli resurslardan dars maqsadiga muvofiq foydalanish, o'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish hamda milliy kontent asosidagi raqamli resurslarni yaratish va joriy etish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Amaliy tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi talabalari nazorat guruhiga nisbatan bilim darajasi va darsga qiziqish ko'rsatkichlari bo'yicha aniq ustunlikka ega bo'ldi. Statistik tahlil raqamli ta'lim vositalarining OTM sharoitida o'zbek tili fanini samarali o'qitishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, raqamli vositalarni joriy etish jarayonida texnik jihozlarning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi hamda milliy kontent tanqisligi kabi muammolar mavjudligi qayd etildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim muassasalarida zarur texnologik bazani yaratish, o'qituvchilarni malaka oshirish kurslariga tizimli ravishda jalb etish hamda milliy raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, OTM sharoitida o'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonining sifatini oshirish, talabalarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, pedagogik jarayonni innovatsion shakllarda tashkil etish imkonini beradi. Bu holat oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili fanini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jalolov, J. (2012). Til o'qitish metodikasi asoslari. Toshkent: Fan.
2. Rahmatullayev, Sh. (2015). O'zbek tili va nutq madaniyati masalalari. Toshkent: Sharq.
3. Abdullayev, A., & Qodirov, M. (2018). O'zbek tili darslarida raqamli resurslardan foydalanish. Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim.
4. UNESCO. (2013). ICT in Education: Global Practices and Policies. Paris: UNESCO Publishing.
5. World Bank. (2019). Digital Skills for Education: Global Insights. Washington, D.C.: World Bank.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №1(2)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.